

## POETIK METAFORALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8019198>

**Xasanova Saida Mamasoli qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, Lingvistik (Ingliz tili) 2- bosqich magistranti*

[Saida051090@gmail.com](mailto:Saida051090@gmail.com)

**Rahimov Zokirjon A'zamovich**

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

@zakirazimovich

### **Annotatsiya**

*Poetik metaforalar adabiyotdagi juda qadimiy mavzulardan biri. Shunga qaramasdan uning qayta va qayta o'rganilishi badiiy adabiyotning salmoqli bo'lishini, sayqallanishini ta'minlaydi. Zero, ushbu tadqiqot O'zbek adabiyotida poetik metaforalar va ularning qo'llanilishi, umuman olganda badiiy adabiyotda poetik metaforalarning o'rni, adabiyotga ta'siri va ehtiyoji haqidagi fikrlarni ilgari suradi*

### **Kalit so'zlar.**

*Metafora, poetik metafora, metaforik obraz, metaforik ko'chim.*

### **Аннотация**

*Поэтические метафоры- одна из древнейших тем в литературе. Тем не менее его перепроверка гарантирует, что вымысел станет весомым и отточенным. Ведь в данном исследовании выдвигаются представления о поэтических метафорах и их использовании в узбекской литературе, о роли поэтических метафор в художественной литературе в целом, об их влиянии на литературу и их необходимости.*

### **Ключевые слова.**

*Метафора, поэтическая метафора, метафорический образ, переносное значение.*

### **Abstract.**

*The article discuss the main roles of poetic metaphors and their impacts to the literature. It proposes the analyses of poetic metaphors and using some specific features in poems.*

### **Key words.**

*Metaphor, poetic metaphor, a metaphorical images, metaphorical meanings.*

### **Kirish.**

Maqolada metafora va badiiy adabiyotning metaforaga bo'lgan ehtiyoji, ularning ishlatilishi haqida so'z boradi. Hamda poetikada ularning ahamiyati bir nechta tahlillar orqali ochib beriladi.

### **Natijalar va muhokamalar.**

Metafora ancha murakkab ma'no ko'chish hodisasi hisoblanib, ayni zamonda ham tilshunoslar, ham adabiyotshunoslar diqqatini o'ziga jalb etib keladi. Bu ma'no ko'chishga tilshunoslar ko'p ma'noli so'zlardagi semema va semalarning xarakterli xususiyatlarini ochish, ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisalar tahlili nuqtai nazaridan yondoshmalar, adabiyotshunoslar esa polisemantik so'zlardagi tasvirning turli vositalar (o'xshatish, sifatlash, majoz, istiora)ni yuzaga keltiruvchi omillar deb biladilar. Har ikkala yo'nalishda ham maqsad bitta, u ham bo'lsa, so'zning ko'p ma'noligi va undagi uslubiy imkoniyatlarini o'rganishdir.

So'zning ko'p ma'noliligini o'rganish, avvalo, leksik uslubiyat uchun muhim rol o'ynaydi. Chunki, bir so'zning o'zida turli xil ma'noning bo'lishi uchun og'zaki va yozma nutqda qo'llashda uslubiy bo'yog'iga, ma'nosiga e'tibor berishni talab qiladi. Shu boisdan ma'no ko'chish ham sinonimiya, omonimiya va boshqa leksik vositalar singari hazil, mutoyiba, kulgi va turli so'z o'yinlarini yuzaga keltiradi. Bunday paytlarda so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosi to'qnashtiriladi, natijada kutilmagan yangi ma'no hosil bo'ladi.

Metaforaga har doim funksional jihatdan qarash kerak. Bunda, bir tomondan, uning shoirga dilidagini ifodalashga, ikkinchi tomondan, she'rxonga ularni his qilishga qanchalik yordam berayotganini diqqat markaziga qo'yish muhim. Zero, metafora ijodiy faoliyat mahsuli ekan, xuddi badiiy asar yoki obraz kabi ikkala tomonni, ijodkor va o'quvchini birdek nazarda tutishni taqozo etadi. Demak, metaforaning she'riyatdagi o'rni va ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning she'riy matnda bajarayotgan funksiyalarini ko'zdan kechirish zarurdir. Shulardan kelib chiqib, metaforaning poeziyada bajaradigan funksiyalaridan ayrimlari A.Oripov she'riyati misolida o'rganildi. Jumladan, "Chuvaladi o'ylarim sensiz" she'ri misolida metafora inson qalbidagi atash imkoni bo'lmagan holatlarni tasvirlab ko'rsatish, shoir uchun his-tuyg'uni ifodalash, she'rxon uchun esa qayta his qilib ko'rishga imkon yaratishi ko'rsatildi. Poetik metafora – obraz, u lisoniy metafora kabi atashga emas, ifodalashga qaratilgandir. Zero, poetik metafora so'z yoki so'zlardan tarkib topuvchi matn bo'lgani holda, unda ifoda so'z (yoki so'z birikmasi, gap, matn) vositasida emas, balki uning yordamida yaratilgan obraz orqali amalga oshadi. She'rdagi "chuvalmoq" fe'l-metaforasi lirik qahramon ruhiyatida kechib turgan noaniqlik (o'ylarining tagiga yetolmaslik, ziddiyatli o'ylar girdobida bir xas kabi chirpirak bo'lish) holatini aniq

ifoda etadi. Metafora holatni atayotgani yo'q, jonli tasvirlamoqda. Agar metaforik ifodalash o'rniga holat atalganida, lirik holatni obrazli tasavvur qilish qiyin bo'lur edi. Ikkinchi tomondan, atash aniqlikni talab qiladi. Lirik holatni esa, birinchidan, aniq atashning imkoni yo'q, ikkinchidan, har qanday aniqlik holatni chegaralab qo'yadi. Natijada shoir uchun ifoda imkonlari, she'rxon uchun tasavvur imkonlari cheklanib qoladi. Metafora esa, aksincha, ayni shu imkonlarni kengaytiradi. Shu jihati bilan metaforik ifoda ijod jarayoni uchun ham, o'qish jarayoni uchun ham birdek muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tgan davr mobaynida metaforaga ko'plab ta'riflar berilgan bo'lib, shu soha bilan shug'ullanganlarning hammasi, albatta, Arastu ta'rifini bir eslab o'tadilar, shu bilan birga, bu ta'rifda muayyan chalkashliklar borligini qayd etadilar. Yunon mutafakkiri Arastu o'zining "Poetika" asarida shoirga tavsiyalar berarkan, metafora qo'llashda ijodiy mohorat kerakligini alohida uqtiradi va ta'kidlaydiki: "... faqat shunigina o'zgalardan o'zlashtirib bo'lmaydi, bu qobiliyat (ya'ni metafora yaratish - O.K.) iste'dodning belgisi bo'lib xizmat qiladi. Axir, yaxshi metaforalar yaratish - o'xshashlikni ko'ra olish demakdir".<sup>16</sup> Anglashiladiki, Arastu metafora yaratish qobiliyatini tug'ma iste'dod bilan bog'liq tushunadi, shuning uchun ham buni boshqalardan o'zlashtirib bo'lmaydi deydi. Albatta, faylasufning "o'xshashlikni ko'ra olish"ga urg'u berishi ham bejiz emas. Sababi buning uchun san'atkorona nigoh kerak, o'xshashlikni ko'ra olish obrazli tafakkur etishning eng muhim shartidir. Ya'ni, garchi Arastu ta'kidlab aytmagan bo'lsa ham, bu yerda poeziyaga xos obrazli tafakkur nazarda tutilayotganini bilish mumkin. Metafora she'riyatda obrazli tafakkur natijasi bo'lib yaraladi. Arastu fikricha, poeziya tili o'ziga xos so'z qo'llashni taqozo etadi, toki tanlangan so'zlar, bir tomondan, aniqlikni, ikkinchi tomondan, kundalik nutqdan farqlanib turishini tahmin etsin. Agar umumiste'moldagi so'zlar poeziya tilining aniqligini ta'minlasa, —glossalar, metaforalar, bezaklar... oliyjanob va ulug'vorl etadi, kundalik nutqdan farqlaydi. Yana —metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va oxorlilik jozibasiga egal, undan o'rinli va bilib foydalanish nutqni bezaydi. Ya'ni, Arastu o'zi aytmoqchi

—noodatiy so'zlarni, jumladan, metaforalarni poeziya,, tilining belgilovchi xususiyati deb hisoblaydi va ularga g'oyat katta ahamiyat beradi.<sup>17</sup>

Metafora til hodisasi bo'lsa ham, o'zining bu xususiyatini poetik nutqdagina to'la namoyon etadi. Boshqacha aytsak, metafora poetik nutqdagina badiiyat hodisasi, ya'ni badiiy obraz sifatida qabul qilinadi. Zero, metafora narsa-hodisani

<sup>16</sup> Аристотель. / Риторика. Поэтика. // М.: Лабиринт, 2000. – С. 173.

<sup>17</sup> Аристотель / Риторика. Поэтика // М.: Лабиринт, 2000.- С. 128

shunchaki atabgina qo'ymaydi, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi, ongimizda atalayotgan narsa haqida jonli tasavvur – obraz yaratadi. Ta'kidlash kerakki, bu obraz poetik nutqdagina asl holicha, ya'ni obraz sifatida qabul qilinadi, nutqning boshqa ko'rinishlari doirasida esa uning pirovard maqsadi nominatsiya bo'lib qolaveradi va tushuncha sifatida qabul qilinadi. Mazkur qiyosdan metaforaning poeziyadagi o'rni va ahamiyati nechog'li katta ekanligini bilib olish mumkin. Zero, yaxshi ma'lumki, san'at, xususan, poeziya obrazli tafakkur qilish va

obrazli ifodadir.

Lingvistik metaforalar obrazlilik, tasviriylikdan holi bo'lsa, xususiy-muallif metaforalari ayni shu xususiyatlar asosiga quriladi.

E.Vohidov xususiy metaforik ko'chmlari bilan asarlarining badiiy qimmatini oshirishga muvaffaq bo'lgan. Jumladan, shoirning metaforani hosil qilishda ot so'z turkumidan keng foydalanadi. Masalan:

Binafsha, senmisan, binafsha senmi?

Ko'chada aqchaga sotilgan.

Binafsha menmanmi, binafsha menmi?

Sevgingga, qayg'ungga tutilgan? (Binafsha)

Bu misrada binafsha so'zi metaforik ma'noda qo'llangan bo'lib, uning asl ma'nosi vatan bo'lib, bu nozik gul timsolida qo'ldan boy berilayotgan, erkidan ayrilayotgan ona yurt ramzi keltirib o'tilgan.

Har qanday metafora bizning oldimizda ba'zi o'xshashliklarni ochib beradi. Ammo chinakam she'riy metafora hali ham go'zallikni aks ettiradi, chunki u ibtidoiy o'xshashlikni yo'q qiladi va o'quvchi oldida yangi, kutilmagan o'xshashlikni ochib beradi..

### **Xulosa.**

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, metafora tushunchasi paydo bo'lganidan beri unga aloqador minglab ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar amalga oshirilgan. Va u faqatgina bir ko'chim turigina hisoblanmay, obrazli fikrlashning muhim quroli hamdir. Zero, obrazli fikrlash she'riyatda nechog'li o'rni beqiyosligi barcha o'quvchiga ayondir. She'riyatni jonlantirish va uni tasavvurga olib kirgiza olishda metaforaning o'rni beqiyosligini anglaganimiz holda adabiyotimiz rivojiga oz bo'lsada hissamizni qo'shmog'imiz darkor.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Arastu Poetika
2. Kassier E. Teoriya metafori 1990
3. Lipgart. A. Osnoviy lingvopoetiki 1999
4. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi 1990
- 5. Yuldashev M. Badiiy matn lingvistikasi 2008